




2021- yilning yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatida jami **464,9** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **80,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1 595 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **105,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **50,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **128,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **110,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,0 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish
korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.03.2020- yil	01.03.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1 468	1 595	108,7
	Navoiy sh.	408	444	108,8
	Zarafshon sh.	125	129	103,2
	G'azg'on sh.		1	
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	232	261	112,5
	Konimex	30	41	136,7
	Qiziltepa	205	236	115,1
	Navbahor	166	193	116,3
	Nurota	113	99	87,6
	Tomdi	35	42	120,0
	Uchquduq	51	51	100,0
	Xatirchi	103	98	95,1


Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (ulushi, % da)



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,8 %), Karmana (16,4 %) va Qiziltepa (14,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **22,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **16,2** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **19,2** punktga kamayib, **4,9** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,9** % i yoki 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **7,1** % ko'paygan), Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,8** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **64,8** % kamaygan), va Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,1** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,7** % kamaygan) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **76,6 %** i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichiga nisbatan **16,0** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **101,7 %** ni tashkil etgan holda **355,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **18,8 %** ni tashkil etdi yoki **87,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **98,0 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **21,7** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **443,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,7 %** va **95,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-fevral oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	464,9	21,7	100,0	443,2	100,0
Navoiy sh.	129,2	5,7	26,4	123,5	27,9
Zarafshon sh.	113,0	16,0	73,6	97,0	21,9
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	46,6			46,6	10,5
Konimex	5,0			5,0	1,1
Qiziltepa	74,2			74,2	16,7
Navbahor	28,3			28,3	6,4
Nurota	22,1			22,1	5,0
Tomdi	1,8			1,8	0,4
Uchquduq	9,6			9,6	2,2
Xatirchi	35,1			35,1	7,9

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,5 % i yoki **336,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

72,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **22,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

4,9 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **355,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 76,6 % ni tashkil etdi.

76,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **87,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

18,8 %




**2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	464,9	80,6	269,5
Navoiy sh.	129,2	95,7	67,3
Zarafshon sh.	113,0	68,3	44,6
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	46,6	72,9	47,9
Konimex	5,0	44,5	3,2
Qiziltepa	74,2	90,5	25,8
Navbahor	28,3	76,2	18,3
Nurota	22,1	84,5	14,2
Tomdi	1,8	77,8	10,3
Uchquduq	9,6	90,0	12,3
Xatirchi	35,1	81,2	25,6

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **15,1 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-fevral oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9** punktga ko'payib, **77,1 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8** punktga kamayib, **7,8 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **10,1 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,6 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **89,9 %** (**9,9 %** ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,5 %** kamaydi va **28,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **71,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **10,1 %** ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	464,9	336,9	68,2	59,8
Navoiy sh.	129,2	94,9	16,0	18,3
Zarafshon sh.	113,0	83,6	24,0	5,4
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	46,6	18,0	13,1	15,5
Konimex	5,0	2,9	1,5	0,6
Qiziltepa	74,2	55,4	5,7	13,1
Navbahor	28,3	22,5	4,3	1,5
Nurota	22,1	19,7	1,3	1,1
Tomdi	1,8	1,7	0,1	-
Uchquduq	9,6	7,3	0,5	1,8
Xatirchi	35,1	30,9	1,7	2,5

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar
qurilishining ulushi, % da



- Navoiy sh.
- Karmana t.
- Qiziltepa t.
- Nurota t.
- Uchquduq t.
- Zarafshon sh.
- Konimex t.
- Navbahor t.
- Tomdi t.
- Xatirchi t.


Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 93,3 % i yoki **1,7** mlrd. so'm), shuningdek, Nurota tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 89,0 % i yoki **19,7** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 88,0 % i yoki **30,9** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Konimex tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 30,6 % i yoki **16,0** mlrd. so'm), Karmana tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,2 % i yoki **13,1** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 21,2 % yoki **24,0** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 33,1 % i yoki **15,4** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 18,4 % i yoki **1,8** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 17,7 % i yoki **13,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (129,2 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (113,0 mlrd. so'm), Qiziltepa (74,2 mlrd. so'm), Karmana (46,6 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-84-46; (79) 223-54-73